



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

RAQOBATBARDOSH PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR MASALALARI

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, t.f.d., professor

Sirojiddinov Ruriddin Saxobiddinovich

"Vatan iftixori", ilm fan sohasidagi xizmatlari uchun ko'krak nishonlari sohibi, ilmiy izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonini rivojlantirish, maxoratli pedagogik kadrlarni tayyorlash, Yosh avlodni ziyoli etib tarbiyalashda Prezident Sh. Mirziyoevning BMTning 80 yilligida ta'lim soxasidagi islohotlar, Turkiy davlatlar hamdo'sligidagi xalqaro anjumandagi nutqlarida ilm fandan o'zga najot yo'qligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Turkiy davlatlar tashkiloti, BMT assambleyasi, Oliy ta'lim muassasalari (OTM), ta'lim xizmatlari bozori, "Loyihalar fabrikasi", Yoshlar siyosati, masofaviy ta'lim, moslashuvchanlik, zamonaviy bilim, modullik, majmuaviylik

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития образовательного процесса, подготовки квалифицированных педагогических кадров и интеллектуального воспитания подрастающего поколения. В своих выступлениях Президент Ш. Мирзиёев обсуждает вопросы реформ в сфере образования на международной конференции Тюркского содружества, посвященной 80-летию ООН, и то, что нет спасения, кроме науки.

Ключевые слова: Организация тюркских государств, Ассамблея ООН, высшие учебные заведения (вузы), рынок образовательных услуг, «Фабрика проектов», молодежная политика, дистанционное обучение, гибкость, современные знания, модульность, комплексность.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" Strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilangan strategik maqsadlar "Ta'lim tizimi islohotlari"dan boshlangan. 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish maqsadlari sifatida "oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish", "oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish", "korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etish", "ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash" kabi yo'nalishlar bo'yicha aniq vazifalar belgilab olingan.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida qo'yilgan vazifalar doirasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan: bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ilg'or xorijiy tajriba hamda iqtisodiyot soha va tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojiga mos yo'nalishlarda tayyorlash; oliy ta'limning o'quv dasturlarini ishlab chiqarish



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

ehtiyojlariga moslashtirish bilan birga xalqaro reytingida yuqori ro'yxatga kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining dasturi asosida ishlab chiqish; o'quv jarayonlarini talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirish kabilardir.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ta'lim tizimida ta'lim berishni ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan konsepsiya asosida tashkil etishga qo'yilgan ilk qadamdir.

Ta'lim berishni ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan marketing konsepsiyalari asosida tashkil etish ta'lim muassasalarini raqobatbardoshligini oshirish va yangi imkoniyatlardan foydalanishga qaratilgan marketing strategiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini isloh qilishning strategik maqsadlariga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish kabi yo'nalishlar kiradi.

Yurtimizda ta'lim jarayoniga bo'lgan e'tibor xalqaro minbarlarda turib ham baralla yangramoqda. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMTning 80 yillik yubileyidagi nutqlarida shunday fikrlarni bildirdilar:

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi, yoshlarimizning oliy ta'lim bilan qamrovi esa 9 foizdan 42 foizga yetdi. Eng asosiysi – o'qituvchi va ustozlik kasbining obro'si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida qaramoqdamiz.

Pedagoglarning o'zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O'zbekistonda Butunjahon professional ta'lim sammitini o'tkazishni taklif etamiz.

Shuningdek, mamlakatimizda ilg'or sog'liqni saqlash tizimini yaratmoqdamiz. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat "Yoshlar parlament"lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tashkil qilindi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

"Mahallabay" o'rganishlar orqali yoshlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlikka jalb etish, shuningdek, ular o'rtasida madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida yangicha tizim asosida barcha tuman (shahar)larda "Yoshlar dasturlari"ni amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo'lgan ishsiz yoshlar kiritiladigan "Yoshlar daftari" tizimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.

Respublikada yoshlar manfaatlarini himoya qiladigan 830 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan "Beshta muhim tashabbus" ilgari surildi.

O'tgan yillar davomida 42 ta tuman (shahar)larning 168 ta olis va og'ir ahvoldagi mahallalarida bu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Hududlarda 72 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etilib, "Ma'rifat karvoni" tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi hamda "Yosh kitobxon" tanlovi, "Bir million dasturchi" kabi o'nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan, barchamizning faxr-iftixorimiz bo'lgan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganish va dunyoga tarannum etish biz uchun sharaflari va mas'uliyatli vazifadir. Shu bois ilm-fanni rivojlantirish va yosh avlod uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish niyatida "Turkiy dunyo xartiyasi"da "Ilmdan o'zga najot yo'q" degan yuksak axloqiy g'oyani muhrlab qo'ydik.

Ushbu ezgu maqsad yo'lida Toshkentda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti ochilmoqda. Mazkur o'quv dargohida turkiy davlatlarning yetuk professor va olimlari faoliyat olib borishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa yosh avlodning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, ularning zamonaviy bilimlarni egallashiga munosib hissa qo'shadi, deb ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Marketing jurnali 2024-yil, mart. №1-son <https://marketingjournal.uz> Oliy ta'limda masofaviy ta'lim shaklining marketing xususiyatlari

2. lex.uz/ (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qaroridan.)



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

3.(Prezident.uz// Shavkat Mirziyoevnnig turkiy davlatlar tashkiloti norasmiy sammitidagi nutqidan

4.Prezident.uz// Prezident Shavkat Mirziyoevning BMTning 80 yillik yubileyidagi nutqlaridan